

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**“TASDIQLAYMAN”**

Chirchiq davlat pedagogika  
universiteti rektori

G.I. Muxamedov

2024-yil “23” 08

**ONA TILI O‘QITISH METODIKASI**

**O‘QUV DASTURI**

<b>Bilim sohasi:</b>	100000 – Ta‘lim
<b>Ta‘lim sohasi:</b>	110000 – Ta‘lim
<b>Ta‘lim yo‘nalishi:</b>	60110400- Boshlang‘ich ta‘lim

Fan/modul kod OTO*M 1567817 ✓	O'quv yili 2026-2027 ✓	Semestr 5-6 ✓	ECTS - Kreditlar 4-4 ✓	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus,tojik, qozoq		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Ona tili o'qitish metodikasi	120	120	240
2.	<p><b>I. Fanning mazmuni.</b></p> <p>Ona tili o'qitish metodikasi fanining maqsadi – bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ona tilining fonetik xususiyatlari, talaffuz me'yorlari, lug'at (leksik) boyligi, imlo qoidalari va grammatik qurilishi yuzasidan nazariy bilim berish, talabalarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish va savodxonligini oshirish, takomillashtirish, talabalarda ona tilining barcha sohaları uchun umumiy bo'lgannazariyalari, qonunlari, qoidalari to'g'risida birlamchi ilmiy qarashni shakllantirish, olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish, o'zlashtirgan nazariy va amaliy bilimlarini eng samarali metod va ish turlaridan foydalangan holda ularni o'quvchilarga o'rgatish ko'nikma va malakalarini hosil qilishdan iborat.</p> <p>Ona tili o'qitish metodikasi fani talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, boshlang'ich sinflar ona tili ta'limi jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.</p> <p><b>II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p><b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu.</b> Ona tili va o'qitish metodikasi fanining predmeti va vazifalari Ona tili o'qitish tamoyillari, ona tili o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Ona tili o'qitishning maqsadi va vazifalari.</p> <p><b>2-mavzu.</b> Til ta'limida innovatsion pedagogik texnologiyalar Boshlang'ich sinfdan ona tili darslariga qo'yiladigan talablar. Ularning turlari. Ona tili darslarida qo'llaniladigan metodlar. Ona tili darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalar.</p> <p><b>3-mavzu.</b> Ona tilidan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi mazmuni Ona tili ta'limi orqali o'quvchilarning tayanch va fanga oid kompetensiyalarini shakllantirish usullari. Nutqiy kompetensiyalar va lingvistik kompetensiyalarga DTSda qo'yiladigan talablar.</p> <p><b>4-mavzu.</b> Darsdan tashqari ishlarni tashkil qilish metodikasi Sinfdan tashqari ishlarning shakllari va vazifalari. Ona tili to'garagi. To'garak, tanlov, badiiy kechalarni tashkil etish usullari.</p> <p><b>5-mavzu.</b> Savod o'rgatish metodikasi Savod o'rgatish metodikasining maqsad va vazifalari. Savod o'rgatishda qo'llanadigan metodlar.</p> <p><b>6-mavzu.</b> Savod o'rgatish jarayoni bosqichlari Savod o'rgatish davrida o'quvchilarni o'qishga o'rgatish. Savod o'rgatishda mashq turlari. Savod o'rgatishda nutq o'stirish.</p>			

**7-mavzu.** Savod o'rgatish davrida boshlang'ich yozuvga o'rgatish Yozuvga o'rgatishning tashkiliy va gigenik shartlari. Yozuvga o'rgatishda o'quvchilar nutqini o'stirish. Savod o'rgatishda o'qish va yozish darslari

**8-mavzu.** Fonetika va grafik asoslarini o'rgatish metodikasi  
Kichik yoshdagi o'quvchilarning ona tilini o'zlashtirishida fonetika bilimining ahamiyati. O'quvchilarda so'zning tovush va harf tarkibi haqidagi boshlang'ich tasavvurini shakllantirish.

**9-mavzu.** O'quvchilarda grammatika va so'z yasalishiga oid tushunchalarni shakllantirishning metodik asoslari  
Grammatik tushunchaning mohiyati va uni kichik yoshdagi o'quvchilar o'zlashtirishidagi qiyinchiliklar.

**10-mavzu.** Boshlang'ich sinflarda so'zning morfemik tarkibini o'rganish metodikasi

Asos va qo'shimcha ustida ishlashning mazmuni va metodikasi. So'z turkumlarini o'rganish bilan bog'liq holda so'zning tarkibi ustida ishlash

**11-mavzu.** Lug'at ustida ishlash metodikasi  
So'z ma'nosini tushuntirish metodikasi. Badiiy asarni qayta hikoyalash, materialni o'rganish bilan bog'liq holda o'quvchilar lug'atini faollashtirish yo'llari.

**12-mavzu.** So'z turkumlarini o'qitish metodikasi  
Otni o'rganish metodikasi. So'z turkumlarini leksik va grammatik ma'nosi ustida ishlash.

**13-mavzu.** So'z turkumlarini o'qitish metodikasi  
Sifatni o'rganish metodikasi. So'z turkumlarini leksik va grammatik ma'nosi ustida ishlash.

**14-mavzu.** So'z turkumlarini o'qitish metodikasi  
Sonni o'rganish metodikasi. So'z turkumlarini leksik va grammatik ma'nosi ustida ishlash.

**15-mavzu.** So'z turkumlarini o'qitish metodikasi  
Olmoshni o'tish metodikasi. So'z turkumlarini leksik va grammatik ma'nosi ustida ishlash.

**16-mavzu.** So'z turkumlarini o'qitish metodikasi  
Ravishni o'rganish metodikasi. So'z turkumlarini leksik va grammatik ma'nosi ustida ishlash.

**17-mavzu.** So'z turkumlarini o'qitish metodikasi  
Fe'lni o'rganish metodikasi. So'z turkumlarini leksik va grammatik ma'nosi ustida ishlash.

**18-mavzu.** So'z turkumlarini o'qitish metodikasi  
Ikkinchi darajali bo'laklar va alohida olingan so'zlar metodikasi

**19-mavzu.** Boshlang'ich sinflarda sintaktik tushunchalar ustida ishlash metodikasi

So'z birikmasi va gap ustida ishlash. Materiallarni sinflarga joylashtirish tizimi. O'quvchilarda asosiy sintaktik tushunchalarni shakllantirishning shart-sharoitlari.

**20-mavzu.** Boshlang'ich sinflarda punktuatsiya elementlari va orfografiyani o'rganish metodikasi

Kichik yoshdagi o'quvchilarni punktuatsiya bilan tanishtirish. Boshlang'ich sinflarda imloga o'rgatish. Imloga oid mashqlar.

## **II.II. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1-mavzu. Boshlang'ich sinflarda "So'z turkumi" bo'limi darslarida foydalaniladigan interfaol metodlarni tahlil qilish.

2-mavzu. Boshlang'ich sinflarda "Gap" bo'limi darslarida foydalaniladigan samarali metodlar va didaktik vositalarni tahlil qilish.

3-mavzu. Sintaktik mavzular o'rganiladigan darslarda foydalaniladigan samarali metodlar va ko'rgazmali vositalarni tahlil qilish.

4-mavzu. Boshlang'ich sinflarda gap tuzishda foydalaniladigan metodlarni tahlil qilish

5-mavzu. Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini kuzatish va mustaqil ish topshiriqlarini tahlil qilish.

6-mavzu. Ona tili darslarini lug'at ustida ishlash yuzasidan didaktik materiallarining ahamiyatini tahlil qilish.

7-mavzu. Ona tili darslarida ko'rgazmali materiallarining ahamiyatini tahlil qilish.

8-mavzu. Bayon va insho yozish darslarini kuzatish va tahlil qilish.

9-mavzu. Diktant yozish darslarini kuzatish va tahlil qilish.

10-mavzu. Ona tilidan o'quvchilarga berilgan bilim, ular hosil qilgan ko'nikma va malakalarni tekshirishga oid darslarni kuzatish.

11-mavzu. Boshlang'ich ta'limda yaratilgan barcha «Alifbe», «Yozuv daftari»ni qiyosiy-tanqidiy tahlili.

12-mavzu. Savod o'rgatishdan yaratilgan metodik qo'llanmalarning qiyosiy-tanqidiy tahlili.

13-mavzu. Savod o'rgatishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash.

14-mavzu. Fonetika va grafika asoslarini o'rganishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash.

15-mavzu. Unli va undosh tovushlarni o'rganishda leksik mashqlarni tashkil etish.

16-mavzu. Unli va undosh tovushlarni o'rganishda orfografik mashqlarni tashkil etish.

17-mavzu. So'z tarkibini pedagogik texnologiyalarni o'rganishda qo'llash.

18-mavzu. So'z tarkibini o'rganishda leksik mashqlarni tashkil etish.

19-mavzu. So'z tarkibini o'rganishda orfografik mashqlarni tashkil etish.

20-mavzu. Boshlang'ich sinflarda so'z turkumlarini o'rganishdagi uzviylik va uzluksizlikning ta'minlanishini tahlil qilish.

## **II.III. Amaliy mashg'ulot mavzulari**

1. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi dasturining tahlili. 5-11- sinf ona tili va adabiyot fani dasturlarining qiyosiy tahlili.

2. To'garak rejasini va mashg'ulot ishlanmasini tuzish. Ona tili va o'qish savodxonligi fanidan tanlovlar rejasini ishlab chiqish.

3. Savod o'rgatish tayyorlov davri o'qish darsi uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

4. Savod o'rgatishning tayyorlov davri yozuv darsi uchun metodik tavsiyalar

ishlab chiqish.

5. Savod o'rgatish asosiy davri o'qish darsi uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

6. Savod o'rgatishning asosiy davri yozuv darsi uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

7. "Fonetika" bo'limidagi mavzularni o'rganish yuzasidan 1-2-sinflar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

8. "Fonetika" bo'limidagi mavzularni o'rganish yuzasidan 3-4-sinflar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

9. "So'zning morfemik tarkibi" bo'limidagi mavzularni o'rganish yuzasidan 1-2-sinflar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

10. "So'zning morfemik tarkibi" bo'limidagi mavzularni o'rganish yuzasidan 3-4-sinflar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

11. Lug'at ustida ishlash nuqtai nazaridan mashq materiallarini tahlil qilish.

12. Ot so'z turkumini o'rganish darslari yuzasidan 1-4-sinflar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

13. Sifat so'z turkumini o'rganish darslari yuzasidan 1-4-sinflar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

14. Son so'z turkumini o'rganish darslari yuzasidan 1-4-sinflar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

15. Olmosh so'z turkumini o'rganish darslari yuzasidan 1-4-sinflar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

16. Fe'l so'z turkumini o'rganish darslari yuzasidan 1-4-sinflar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

17. Gap va so'z birikmasi ustida ishlash yuzasidan 1-4-sinflar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

18. Metodik adabiyotlardan foydalangan holda tinish belgilarining ishlatilishi bilan tanishtiriladigan hamda imlo ustida ishlash imkoniyati mavjud mashq materiallari ustida ishlash.

19. Boshlang'ich sinfda o'qish savodxonligi dasturini tahlil qilish.

20. PIRLS topshiriqlari asosida Ona tili va o'qish savodxonligi darsligida berilgan matnlarni tahlil qilish (1-2-sinflar).

### **Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, hulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Boshlang'ich ta'limda yaratilgan barcha «Alifbe», «Yozuv daftari»ning qiyosiy-tanqidiy tahlili.
2. Savod o'rgatishdan yaratilgan metodik qo'llanmalarining qiyosiy-tanqidiy tahlili.
3. Savod o'rgatishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash.
4. Fonetika va grafika asoslarini o'rganishda pedagogik texnologiyalarni qo'llash.
5. Unli va undosh tovushlarni o'rganishda leksik mashqlarni tashkil etish.
6. Unli va undosh tovushlarni o'rganishda orfografik mashqlarni tashkil etish.
7. So'z tarkibini pedagogik texnologiyalarni o'rganishda qo'llash.
8. So'z tarkibini o'rganishda leksik mashqlarni tashkil etish.
9. So'z tarkibini o'rganishda orfografik mashqlarni tashkil etish.
10. 1-4-sinflar uchun nashr etilgan metodik qo'llanmalarining qiyosiy-tanqidiy tahlili.
11. Boshlang'ich sinflarda so'z turkumlarini o'rganishdagi uzviylik va uzluksizlikning ta'minlanishini tahlil qilish.
12. Ot so'z turkumini o'rganishda qo'llanadigan ko'rgazmalar.
13. Ot so'z turkumini o'rganishda qo'llanadigan mustaqil ishlarni ishlab chiqish.
14. Sifat so'z turkumini o'rganishda interfaol usullarni qo'llash.
15. Sifat so'z turkumini o'rganishdagi leksik-semantik mashqlar.
16. Son so'z turkumi yuzasidan darslikdagi berilgan ma'lumotlarni tahlil qilish.
17. Son so'z turkumini o'rganishda grammatik o'yinlardan foydalanish.
18. Olmosh so'z turkumini o'rganishda ta'limiy o'yinlardan foydalanish.
19. Son so'z turkumini o'rganishdagi mashqlar tizimini tahlil qilish.
20. Boshlang'ich sinf darsliklarida fe'lga oid mashqlarni tasnif qilish.
21. Fe'l so'z turkumini o'rganishda qo'llanadigan ta'limiy o'yinlarni tayyorlash.
22. So'z turkumlarini o'rganishda hosil qilinadigan orfografik bilimlar.
23. So'z turkumlarini o'rganishga oid adabiyotlar ro'yxatini tuzish.
24. Internetdan boshlang'ich sinflarda so'z turkumlarini o'rganishga oid ma'lumotlarni yig'ish.
25. 1-4-sinf darsliklaridagi orfografiyaga oid mashqlarni tahlil qilish.
26. Boshlang'ich sinfda gap ustida ishlashdagi izchillik.
27. Gap ustida ishlashga oid mustaqil ishlar.
28. Boshlang'ich sinf darsliklarida punktuatsiyaga oid berilgan materiallar tahlil qilish.
29. To'g'ri o'qishga o'rgatish usullari.
30. Tez o'qishga o'rgatish usullari.

3.

**VII. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

**Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**

– ona tili o'qitish metodikasi fanining umumiy tushuncha, qoida, qonun va nazariyalarining o'zaro bog'liqligi; ona tili o'qitish metodikasi fanining shakllanish va rivojlanishining tarixiy bosqichlari; ona tili o'qitish metodikasi fanining keyingi yutuqlari; ona tili o'qitish metodikasi fanining nazariy masalalari to'g'risida, jumladan, ona tili imlosi, uslubiyati; ona tilimizning rivojlanish tarixi; ona tilimizning lug'at tarkibi; ona tilimizning fonetika va fonologiyasi; ona tili fanining grammatikasi; ona tili fanining uslubiyati; ona tili o'qitish metodikasi fanining imlosi haqida; ona tili

	<p>ta'limi jarayonini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslari; ona tilini o'qitish tarixi, rivojlanishi, fanning ob'ekti va sub'ekti; Ona tili o'qitish metodikasi fanining tekshirish (ilmiy-tadqiqot) metodlari, boshqa fanlar bilan aloqasi; ona tilini o'qitishga doir yondashuv va tamoyillar; ona tili va o'qish savodxonligini o'qitish metodlari; ona tili va o'qish savodxonligidan dars turlari va unda qo'llanadigan innovatsion texnologiyalar; til bo'limlarini o'qitishdagi o'ziga xos yondashuvlar haqida tasavvurga ega bo'lishi (<b>bilim</b>);</p> <p>– ona tili o'qitish metodikasi fanining leksikasi, fonetikasi, grammatikasi, imlosi, uslubi bo'yicha tahlil qila olish, ona tili darslarini loyihalashtirish va tashkil etish, ona tili ta'limi mazmuni, bu fanlarni o'qitishda uning qismlari, boblariga xos xususiyatlarini tahlil qila olish, ona tili ta'limida an'anaviy va noan'anaviy dars shakllarini qo'llash, o'quvchilar o'quv biluv faoliyatini faollashtirishga qaratilgan dars usullarni bilishi va ulardan foydalana olishi (<b>ko'nikma</b>);</p> <p>– o'quv ishlarini loyihalashtirish; darsdan tashqari mashg'ulotlarni aniq va maqsadli tashkil eta olish; o'z shaxsiy va kasbiy axborot maydonini loyihalashtirish ko'nikmalariga ega bo'lishi (<b>malaka</b>) kerak.</p>
4.	<p style="text-align: center;"><b>VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va hioya qilish uchun loyihalar</li> </ul>
5.	<p style="text-align: center;"><b>IX. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.</p>
6.	<p style="text-align: center;"><b>X. Asosiy adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b.</li> <li>2. G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Masharipova U., Sattorova X. Husnixat va uni o'qitish metodikasi. –T.: TDPU, 2013. – 70 b.</li> <li>3. Матчанов С., Фуломова Х., Юлдашева Ш., А. Нисанбаева. Ана тілін оқыту әдістемесі. –Т.: ТДПУ, 2013. – 277 б.</li> <li>4. Рахматуллаева Л.И. Методика преподавания родного языка родного языка. –Т.: Учебное пособие. Молия Иктисод, 2007.</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>XI. Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va</li> </ol>

	<p>shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruza, 2017-yil 14-yanvar / Sh.M. Mirziyoyev. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.</p> <p>2. S.Matchonov, H. Bakiyeva, X. G‘ulomova. Ona tili o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma, T.: “Yangi Chirchiq prints”, 2023-y.</p> <p>3. M.Hamroyev, D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, X.G‘ulomova, H.Yo‘ldosheva. Ona tili (darslik). Toshkent: TDPU. 2008.</p> <p>4. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Saryiev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: Noshir, 2009.</p> <p>5. R.Ikromova, D.Muhammedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to‘plami. Toshkent: TDPU, 2009.</p> <p>6. Lutfullayeva D. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2-qism. T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2018.</p> <p style="text-align: center;"><b>Axborot manbalari</b></p> <p><a href="http://www.edu.uz">http://www.edu.uz</a>  <a href="http://www.gov.uz">http://www.gov.uz</a>  <a href="http://www.pedagog.uz">www.pedagog.uz</a>  <a href="http://www.cspi.uz">www.cspi.uz</a>  <a href="http://www.natlib.uz">www.natlib.uz</a>  <a href="http://www.ziyonet.uz">www.ziyonet.uz</a></p>
7.	<p><b>Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024 yil “<u>28</u>” <u>08</u> <u>1-sonli</u>”dagi qarori bilan tasdiqlangan</b></p>
8.	<p><b>Fan/modul uchun ma’sul:</b>  D.Ibragimova – CHDPU, Boshlang‘ich ta’lim nazariyasi kafedrasida o‘qituvchisi</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b>  Sh. Yo‘ldosheva – TDPU, Boshlang‘ich ta’limda ona tili va uni o‘qitish metodikasi kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi  S. Matchonov – CHDPU, O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida professori, pedagogika fanlari doktori</p>